

**JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA EKSPERTIZA TEKSHIRUVI UCHUN
NAMUNALAR OLISHNING NAZARIY JIHATLARI**

Axmedova Sabrina Shuxrat qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

Akademiyasi ish yuritish bo‘yicha inspektori

Astanov Istam Rustamovich

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

Akademiyasi kafedra professori, yu.f.d

Annotatsiya: ushbu maqolada jinoyat ishlari bo‘yicha ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olishning nazariy asoslari tahlil etilgan, xususan ekspertiza tekshiruv uchun namunalar tushunchasiga ta’riflar ishlab chiqilgan hamda ekspertiza tekshiruv uchun namunalarning turlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: namuna, biologik material, ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish, surishtiruvchi, tergovchi, ekspert, mutaxassis.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ
ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ**

Ахмедова Сабрина Шухрат кизи

Инспектор по делопроизводства Академии Генеральной прокуратуры

Республики Узбекистан

Астанов Истам Рустамович

Д.ю.н, профессор Академии Генеральной прокуратуры

Республики Узбекистан

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические основы изъятия образцов для экспертизы по уголовным делам, в частности, разработаны понятия образцов для экспертизы, а также рассмотрены виды образцов для экспертизы.

Ключевые слова: образец, биологический материал, получение образцов для экспертного исследования, дознаватель, следователь, эксперт, специалист.

THEORETICAL ASPECTS OF OBTAINING SAMPLES FOR FORENSIC
EXAMINATION IN CRIMINAL CASES

Akhmedova Sabrina Shukhrat kizi

*Inspector for office work at the Academy of the General Prosecutor's Office of
the Republic of Uzbekistan*

Astanov Istam Rustamovich

*D.Sc, Professor of the Academy of the General Prosecutor's Office
of the Republic of Uzbekistan*

Abstract: This article discusses the theoretical foundations for obtaining samples for forensic examination in criminal cases, in particular, the concepts of samples for forensic examination are developed and the types of samples for examination are considered.

Key words: sample, biological material, obtaining samples for forensic examination, inquirer, investigator, expert, specialist.

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida u yoki bu obyektlarni taqqoslashga zarurat tug'iladi. Ko'pgina holatlarda bu kabi taqqoslashlar identifikatsion ekspertiza o'tkazish bilan amalga oshiriladi. Shuni aytsih mumkinki, muayyan obyektlarning tur va guruhiy tegishliligiga oid ma'lumotlarga aniqlik kiritishda ushbu obyektlardan namunalar olish muhim ahamiyatga ega. Namunalar olish tergov harakati hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, murdani eksqumatsiya qilish, xom ashyolardan, mahsulotlardan, boshqa materiallardan olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. "Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish" tushunchasiga ta'rif berishdan oldin kriminalistik identifikatsiya tushunchasiga to'xtalib o'tishimiz joiz. ayrim qoidalariga to'xtalib o'tishimiz lozim. Kriminalistik identifikatsiya jinoyat ishi bo'yicha qidirilayotgan, aniqlanishi lozim bo'lgan muayyan (odam, buyum) obyektning aynan o'zi ekanligini bildiradi.¹ Kriminalistik identifikatsiya qilish jarayonida identifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan obyektlar ajratib olinadi, ushbu obyektlar sirasiga qo'l izlari, so'lak, qon dog'lari, transport vositalari shinalaridan qolgan izlar, jinoyat quroliga yoki boshqa barqaror shaklga ega bo'lgan obyektlar, ashyo va materiallarning hajmi, og'irligi va h.k.lar kiradi. Kriminalistik identifikatsiyaning asosiy mohiyatini tashkil qiluvchi taqqoslash bosqichi identifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan kamida ikkita obyekt asosida amalga oshirilishi kerak.

¹ Д.Базарова, И.Р.Астанов Криминалистика ва экспертиза. Дарслик.– Тошкент: ТДЮУ, 2019. – 9 б.

Endi esa e'tiborimizni ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatiga qaratamiz. Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olishning protsessual tartibi va ulardan foydalanishning huquqiy asoslari surishtiruv, datslabki tergov va sud jarayonida bevosita ekspertiza o'tqazish bilan bog'liq bo'lib, mazkur masalalar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonunlarida o'z aksini topgan.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar tushunchasiga ko'pgina olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan.

Xususan, N.A.Selivanovning fikriga ko'ra, "Taqqoslash uchun olingan namunalar bu daliliy ahamiyatga ega bo'lmagan yordamchi texnik vositalar bo'lib, faqatgina ularni tekshirish va ashyoviy dalillar bilan taqqoslash natijalariga asosidagina daliliy ahamiyatga ega bo'ladi"².

I.Kertesning fikriga ko'ra esa, "Taqqoslash uchun namunalar sifatida faqat "reprezentativ namunalar" hisobga olinishi lozim. Ayrim jinoyatlar sodir etilganda predmetlarning kattaligi yoki ularning soni ushbu predmetlarni ashyoviy dalil sifatida ish uchun umumlashtirishga imkon bermaydi. Aynan shu holatda ushbu predmetlarning namunalari olinadi. Misol uchun, portlagan tsisterna, suvi zaharlangan quduq, betonli qurilma kabilarni yaxlit namuna sifatida olishning imkoni mavjud emas".³

I.A. Zinchenkoning fikricha, "Taqqoslash uchun namunalar yordamchi materiallar hisoblanib, ashyoviy dalillar bilan muomala qilish qoidalari qo'llaniladi.

N.N.Yegorovning fikricha, "Qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar jinoyat protsessida qo'llaniladigan obyektlarning mustaqil toifasi bo'lib, jinoyat ishida haqiqatni aniqlash uchun qiyosiy tadqiqot usullarini qo'llash zarurati bilan bog'liq. Ular moddiy dalillar bilan chambarchas bog'liq, ammo kelib chiqishi boshqacha hisoblanadi, chunki ular o'rganilayotgan hodisa natijasida kelib chiqmagan."⁴

Y.K.Orlovning fikriga ko'ra esa, "Mustaqil ashyoviy dalillarni 3 guruhga bo'lish mumkin: 1) ashyoviy dalillarning nusxalari: Misol uchun, haqiqiy ashyoviy dalildan nusxa ko'chirish yo'li bilan qo'lga kiritiladigan namunalar, ya'ni tish yoki oyoq izlaridan qoliplar olish; 2) predmetlarning analoglari (ashyoviy dalillarni o'rnini bosuvchi), umumiy, turdosh sifatlarga ega bo'lgan va asli topilmagan holatda uning o'rniga qo'llaniladigan predmetlar (masalan, odam o'ldirish jinoyatini sodir etishda

² Селиванов Н.А. Вещественные доказательства. М., 1971. С. 13.

³ Кертэс И. Основы теории вещественных доказательств. М., 1973.

⁴ Орлов Ю. К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. М., 2005. С.30

ishlatilgan pichoq topilmagan holatda ushbu pichoqqa o'xshash pichoq tadqiqot uchun qo'llaniladi); 3) qiyosiy tadqiqot uchun olingan namunalar.

N.I.Doljenkoning fikriga ko'ra, "taqqoslash uchun namunalar bu shubhasiz boshqa obyektidan kelib chiqqan hamda uning bir qismi bo'lib hisoblanuvchi yoxud uning belgilarini o'zida ifodalovchi moddiy obyekt bo'lib, identifikatsiya qilish yoki identifikatsiya qilinayotgan obyektga guruhviy mansubligini aniqlash va tergov qilinayotgan jinoyat ishidagi boshqa holatlarni aniqlash maqsadida olinadi"

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga ko'ra, "Namunalar bu – tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlardir".⁵

Yuqorida turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida namuna tushunchasiga quyidagi ta'rif berishni taklif etamiz: "Namunalar bu – ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash, tasdiqlash, inkor qilish, xulosa berish maqsadida ekspertiza tekshiruvini o'tkazish uchun qonunda belgilangan tartibda va vakolatli shaxs tomonidan olingan, rasmiylashtirilgan, lozim darajada saqlangan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlardir".

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 23-bob, 188-196-moddalarida ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tartibi mustahkamlangan bo'lib, namunalar 3 usul bilan, ya'ni ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatini o'tkazish, boshqa tezkor va tergov harakatlarini o'tkazish, dalillarni to'plashning umumiy usullaridan foydalangan holda olinadi.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish jarayonida ekspertiza tayinlashda taqdim qilinadigan namunalar 3 turga bo'linadi:

1. Erkin namunalar jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin shakllangan va mavjud bo'lgan ob'ektlardir (masalan, xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga tegishli bo'lgan uyidan, o'qish joyidan unga tegishli bo'lgan yozuvlarni olish orqali amalga oshiriladi).

Erkin namunalarning muhimligi shundaki, ularning berilmasligi xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat shakllantirilishiga ham olib kelishi mumkin.

2. Eksperimental namunalar ekspertiza tayinlagan xodim tomonidan jinoyat ishi maqsadlari uchun tayyorlangan ob'ektlardir. Asosan bunday namunalar ekspertiza o'tkazish jarayonida ekspertlar tomonidan olinadi (masalan, jinoyat ishi qo'zg'atilgandan

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi <https://lex.uz/acts/-1633102>

keyin shaxsni identifikatsiya qilish uchun olinadigan namunalar hisoblanadi. Ular jumlasiga yozuv namunalarini yozdirib olish, inson organizmi elementlari (qon, soch, so‘lak va boshqa namunalarni kiritish mumkin).

3. Shartli-erkin namunalar – ish qo‘zg‘atilganidan so‘ng bajarilgan, lekin ekspertiza o‘tkazish uchun maxsus mo‘ljallangan qo‘lyozma va imzolar shartli erkin namunalardir. Tushuntirish xati, ariza, shikoyat, so‘roq, yuzlashtirish bayonnomalarini mazkur namunalar jumlasiga kiritish mumkin⁶.

Shu bilan birga namunalar protsessual qoidalarga ko‘ra olinishi va kelib chiqish manbasiga qarab ham 2 turga bo‘linadi:

1. protsessual maqomga ega bo‘lgan shaxslardan, ya‘ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohdan olinadigan;

2. aniq protsessual maqomga ega bo‘lmagan (murdalar yoki hodisa joyidan olingan) ashyoviy dalillar, obyektlardan olingan namunalarga bo‘linadi.

Protsessual maqomga ega bo‘lgan shaxslardan ekspertiza tekshiruvini uchun namunalar olish tergov harakati namunalarni olishning boshqa usullaridan namunalar tirik shaxslardan olinishi hamda namunalarda ashyoviy dalillik (takrorlanmaslik) belgisi yo‘qligi bilan farqlanadi.

Yuqoridagi fikrimizning dalili O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 190-moddasida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra, “Ekspert tekshiruvini uchun namunalar gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, shuningdek tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash bo‘yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxsdan olinishi mumkin. Hodisa sodir bo‘lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan ham iz qoldirilgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida yetarlicha asoslar bo‘lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruvini uchun namuna olinishi mumkin”.

Bundan tashqari, I.Y.Loban, G.I.Zaslavskiy, V.L.Popov kabi olimlar namunalarni 2 turga, ya‘ni tekshiruvchi namunalar va andoza namunalarga ajratadi. Tekshiruvchi namunalar ekspertga ishchi namunalardagi aralashmalarning kelib chiqish manbalari, turi va ifloslanish darajasi haqidagi ma‘lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, ishchi namunalarga predmet sifatida ishlatishga mo‘ljallangan turli xil material yoki moddalar – hodisa sodir bo‘lgan joydan tashqarida olingan, lekin ashyoviy dalil deb hisoblanmaydigan, umuman olganda tergov qilinayotgan jinoyatga bevosita aloqador bo‘lmagan predmetlar: bint, shisha predmetlar, konservalovchi suyuqliklar (spirt, formalin), tuproq, suv, havo namunalari kiradi. Andoza namunalar ishchi va tekshiruvchi namunalardan ekspertiza tekshiruvini o‘tkazish jarayonida noprotsessual jihatdan qo‘llanilishiga ko‘ra farqlanadi. Andoza namunalar bu muayyan biologik va

⁶ Замоновий экспертиза имкониятлари. Суд экспертизасининг имкониятлари ва уни тайинлаш тўғрисида услубий қўлланма. С.Отаҳўжаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 42.

kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan namunalarning yig'indisi hisoblanadi, misol uchun oldindan ma'lum muayyan turdagi antigen saqlovchi yoki aksincha antigen saqlamaydigan, reagent aralashmalarining biologik yoki kimyoviy, o'ziga xos faolligi va sezuvchanligini aniqlovchi namunalardir. Ular muayyan ekspertizada qo'llaniladigan reagentlarning o'ziga xosligi, faolligi va sezuvchanligini dastlabki sinovdan o'tkazish yoki ularning tuzilishi, tarkibi, biror tadqiqot uchu taqdim etilgan obyekt bilan o'zaro o'xshashlik xususiyatlarini taqqoslash uchun xizmat qiladi⁷.

A.N.Ivanovning fikricha, taqqoslash tadqiqoti uchun olingan namunalarning xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga ajratadi:

1. Odam organizmining hayoti uchun zarur bo'lgan va boshqa odam organizmining biologik obyektlari (qon, so'lak, tirnoq osti material);
2. Husnixat, yurish va boshqa ko'nikmalar kabi psixofiziologik o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi yuqori nerv sistemasida dinamik stereotiplar ko'rinishida mustahkamlangan obyektlar (husnixat, imzo namunalari, oyoq izlarining eksperimental yo'lakchasi);
3. Tekshirilayotgan obyektlar qoldirgan moddiy izlari (barmoq izlari, oyoq kiyim izlari, tish izlari)⁸.

P.P.Ishenko qiyosiy tadqiqot uchun olingan namunalarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Erkin va shartli erkin namunalalar;
2. Eksperimental namunalalar;
3. Kolleksion va andoza (etalon) namunalalar;
4. Sinov namunalari (muayyan materiallarning namunalari, tadqiq etilayotgan obyekt moddalari).

Bundan tashqari, materialshunoslik tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, u quyidagilarni ta'kidlaydi: Tovarshunoslik (материаловедческий) ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlariga tayanib olim namunalarni quyidagi turlarga ajratadi: andoza (etalon) namunalalar; material namunalari yoki tadqiq etilayotgan obyekt moddalari namunalari; tekshiruvchi namunalalar (kontrol) ⁹.

Qiyosiy tadqiqot uchun namunalarni nisbatan kengroq klassifikatsiyasi N.I.Doljenko tomonidan keltirib o'tilgan:

⁷ Лобан И.Е., Заславский Г.И., Попов В.Л. Судебно-медицинская деятельность в уголовном судопроизводстве: правовые, организационные и методические аспекты. СПб. 2003. С.314-316.

⁸ Иванов А. Н. Понятие, виды и тактика получения образцов для сравнительного исследования // Тактика следственных действий. / Под ред. В.И. Комиссарова Саратов, 2000. С.195.

⁹ Ищенко П. П. Специалист в следственных действиях (уголовно-процессуальные и криминалистические аспекты). М., 1990. С. 103.

Vujudga kelish vaqti va shart-sharoitlariga ko'ra namunalar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Erkin namunalar (dokriminal);
2. Shartli-erkin namunalar (postkriminal);
3. Eksperimental yoki maxsus namunalar.

Qiyosiy tadqiqot obyektining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra quyidagicha:

1. Obyektning individual belgilarini ko'rsatuvchi namunalar;
2. Turga xos yoki guruhiiy belgilarni ko'rsatuvchi namunalar.

Namunalarning xarakteriga ko'ra:

1. Izlar yoki barmoq izlari – obyektning tashqi tuzilishini atrof-muhitda aks ettiruvchi namunalar;
2. Inson yoki hayvon hayot faoliyati namunalari;
3. Obyektlarning qismini tashkil etuvchi namunalar;
4. Muayyan guruhga tegishli predmetlarning namunalari (kolleksion namunalar yoki andoza (etalon) namunalar).

Eksperimental (maxsus namunalar) namunalarni oluvchi shaxslar doirasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Surishtiruvchi tomonidan olinadigan namunalar;
2. Mutaxassis tomonidan olinadigan namunalar;
3. Ekspert tomonidan olinadigan namunalar.

Shaxslardan olingan namunalar ularning protsessual maqomiga ko'ra ham farqlanadi:

1. Jabrlanuvchidan olinadigan namunalar;
2. Guvohlardan olingan namunalar;
3. Gumon qilinuvchidan olinadigan namunalar;
4. Ayblanuvchidan olinadigan namunalar.

Ekspertiza turlariga ko'ra:

1. An'anaviy kriminalistik ekspertiza tekshiruvi uchun olingan namunalar;
2. Sud-tibbiy ekspertizasi tekshiruvi uchun olinadigan namunalar;
3. Tovarshunoslik (материаловедческая экспертиза) ekspertizasi tekshiruvi uchun olinadigan namunalar.

Qiyosiy-tadqiqot uchun olinadigan namunalarning olinish tartibiga ko'ra:

1. Ixtiyoriy asosda olinadigan namunalar;
2. Majburiy asosda olinadigan namunalar ¹⁰.

¹⁰ Долженко Н.И. Образцы для сравнительного исследования и тактика получения экспериментальных образцов. М., 2003. С. 182.

Bizning fikrimizcha, N.I.Doljenko tomonidan ekspertiza tekshiruvi uchun olinadigan namunalar klassifikatsiyasi ahamiyatli, lekin ushbu klassifikatsiyani yana takomillashtirish maqsadida unga qiyosiy tadqiqot uchun olinadigan namunalarning ularga nisbatan o‘tkaziladigan ekspertizaning tartibiga ko‘ra:

1. Dastlabki ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
2. Qo‘shimcha ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
3. Qayta ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
4. Kompleks ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
5. Komissiyaviy ekspertiza uchun olinadigan namunalar kabi turlarga bo‘lish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Д.Базарова, И.Р.Астанов Криминалистика ва экспертиза. Дарслик.– Тошкент: ТДЮУ, 2019. – 9 б.
2. Селиванов Н.А. Вещественные доказательства. М., 1971. С. 13.
3. Кертэс И. Основы теории вещественных доказательств. М., 1973.
4. Орлов Ю. К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. М., 2005. С.30
5. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi <https://lex.uz/acts/-1633102>
6. Замонавий экспертиза имкониятлари. Суд экспертизасининг имкониятлари ва уни тайинлаш тўғрисида услубий қўлланма. С.Отахўжаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 42.
7. Лобан И.Е., Заславский Г.И., Попов В.Л. Судебно-медицинская деятельность в уголовном судопроизводстве: правовые, организационные и методические аспекты. СПб. 2003. С.314-316.
8. Иванов А. Н. Понятие, виды и тактика получения образцов для сравнительного исследования // Тактика следственных действий. / Под ред. В.И. Комиссарова Саратов, 2000. С.195.
9. Долженко Н.И. Образцы для сравнительного исследования и тактика получения экспериментальных образцов. М., 2003. С. 182.